

# LIDERLIK QOBILIYATINI NAMOYON QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Maxmudov Nu'monjon Mamajonovich**

*Andijon viloyat Baliqchi tumani 52-maktab psixologi*

**Boymatov Akramjon Abduqahhorovich**

*Andijon viloyati Baliqchi tumani 10-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'spirinlarning yetakchilik qobilyati va uning tarixiy kelish chiqish jihatdan ajdodlarimiz o'rganib chiqib qoldirgan fikr mulohazalari keltirilgan. "Lider" yoki "yetakchi" atamasiga alohida ta'rif keltirib liderlik qobilyatiga o'ta ahamyatli bo'lgan tub xususiyatlar keltiribgina qolmay, aynan shu yetakchilik qobilyatini rivojlantirishdagi tashqi salbiy ta'sir va to'siqlar ko'rib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** yetakchi, o'spirin psixologiyasi, o'spirinlarda liderlik qobilyati, liderlik xususiyatlari, raxbarlik xususiyati, o'spirinlik yoshi, liderlik qobilyatini rivojlantirishdagi to'siqlar

**Annotation:** This article discusses the leadership skills of adolescents and their historical origins, which have been explored by our ancestors. A separate definition of the term "leader" or "leadership" not only identifies the fundamental properties that are critical to leadership ability, but also the external negative influences and barriers to the performance and development of this leadership ability.

**Keywords:** leadership, adolescent psychology, leadership skills in adolescents, leadership qualities, leadership qualities, adolescence, barriers to leadership development

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются лидерские доброметл подростков и их исторические предпосылки. Отдельное определение термина «лидер» определяет не только фундаментальные качества, критически важные для лидерских качеств, но и внешние влияния и барьеры на пути развития этой лидерской способности.

**Ключевые слова:** лидерство, подростковая психология, лидерские качества у подростков, лидерские качества, лидерские качества, подростковый возраст, барьеры развития лидерства.

## KIRISH.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma'rifat va madaniyatni o'rgatish, ularni





komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarni izlaganlar. Aristoteldan keyin, Sharq va G'arbda "Muallimi soniy", ya'ni "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Yaxshi xulqlar", "Baxt- saodatga erishish haqida" kabi asarlarida sardor, yetakchiga xos xislatlar haqida yozadi. Forobiy bunday fazilatlar deganda, biliqdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqiy ma'naviy komillikka intilish, adolatli bo'lish kabi xislatlarni tushungan.

«Yetakchi» so'zi guruh a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda ba'zan «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ham uchraydi.

Yetakchi - o'z atrofidagi odamlarning fikri va xulq-atvoriga ijobiyligi ta'sir o'tkaza oladigan, maqsadli vazifalarni amalga oshirish qobiliyatiga va yuqori shaxsiy mavqega ega bo'lgan ijtimoiy guruh a'zosi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va

qobiliyatni imkoniyatga qarab, namoyon etish holatidir.

Masalan, fozillar shahrining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yetakchiga xos bo'lgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni ta'kidlaydi:

Birinchidan, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim;

Ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiyligi ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur;

Uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur;

Usullar Shaxsning yetakchilik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv «vaziyatlari yetakchilik» deb ataladi, unda yetakchi deb tan olingan shaxsning umumiyligi maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi<sup>1</sup>. Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha yetakchiga ega bo'lishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Samarali faoliyat olib boruvchi rahbar o'z



jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o‘z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda faol qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini anglasin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda mas’uliyatni his qiluvchi va professional xodimlarga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega.

Yoshlar yetakchilariga xos xususiyatlarni quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin:

- ishonch - o‘z bilim va tajribasini qo’llash;
- faollik - g‘ayrat bilan harakat qila olish;
- tashabbuskorlik - faollikning ijodiy namoyon bo‘lishi, g‘oyalar, takliflarni ilgari surish;
- bilimdonlik - ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik - o‘zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiyl bo‘lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;
- zehnlilik - voqeа-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan ko‘ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik - iroda kuchini namoyon qila olish, qat’iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik - his-tuyg‘u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;
- mehnatkashlik - bardoshlilik, murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati;
- kuzatuvchanlik - ishni ko‘ra bilish, yo‘l-yo‘lakay muhimini ajratish, mayda-chuya narsalarni fahmlay olish;
- tartiblilik - o‘z xatti-harakatlarini rejalashtira olish, ketma-ketlikni aniqlay olish;
- mustaqillik - mulohaza yuritishda mustaqillik, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.

Yoshlar yetakchisining o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni yetakchilik iste’dodining boshqalardan farqli ko‘rsatkichlari qatorida yana quyidagilarni qayd etish mumkin:

- tashkilotchilik ziyrakligi - o‘zgalarni tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;
- faol psixologik ta’sir kuchiga egalik - yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli usullar bilan ta’sir o’tkaza olish;
- yetakchilik mas’uliyatini o‘ziga olish.

Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - yoshlar orasida “bir qadam oldin”da bo‘lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo‘lmagan axborotga ega bo‘lishi kerak. Barcha jahhada yoki sohada axborotga egalik qilish





boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo'Imagan o'spirinlar uning o'rnini xayol, gumon va shubha bilan to'ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo'Imagan voqealar bilan o'rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa o'spirinning yetakchilik xususiyatlari o'z fikrini erkin bildirishida namoyon bo'ladi. Yoshlar yetakchisi aniq dalil va isbotlar bilan o'z bilimini boyita oladi. Bunday holatda yetakchiga nisbatan ishonch ortadi.

Yosh yetakchining yana bir xususiyati shundaki, u o'ziga xos va takrorlanmas fikrlarni dadil bildira oladi. U fikrlarini qiziqarli tarzda ifodalaydi va boshqalardan ham dadillik kutadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan yetakchiga yoshlar ishonadi va unga ergashadi. Shuning uchun yoshlarga yetakchilik xususiyatlari bilan birga axloqiy qoidalar assosi va ko'nikmalarini singdirish hamda har bir xatti-harakatning natija va oqibatlarini anglashni o'rgatish kerak. Bu, o'z navbatida, barkamol, yetuk insonni shakllantirish imkonini beradi. Yoshlar va o'spirinlar ichida turli ijtimoiy guruhlar, harakatlarga a'zo bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Rahbar uchun zarur xususiyatlardan yana biri - shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi. O'ziga ishonchi bo'Imagan rahbar vaziyat o'zgarishi sababli o'z qarorini o'zgartirishi tabiiy. Bunday jamoada xodimlar o'z rahbarini suyanchiq sifatida ko'rmaydilar. Yetakchi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy holatlarda sherigi yoki hamkorida ishonch uyg'otishi, ishning muvaffaqiyatiga kafolat berishi, mas'uliyatni his etishi zamонавиуъ rahbar uchun muhim fazilat ekanini anglashi lozim. Bu jarayonda "ishonch" tushunchasi asosiy o'rinnegallaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'smirlarning yetakchilik faoliyatiga salbiy tasir ko'rsatuvchi sabablar yoki to'siqlardan biri bu ularning omma oldida yoki sinf xonasi,dars jarayonida o'z fikrlarini erkin mustaqil ayta olmasligi, o'smirlilik yoshini boshdan kechirayotgan davrda hissiy sergirlik ya'ni salbiy fikr yoki mulohazaga berilib ketuvchanlik shu bilan birga jizzakilik ,ota – onasi yoki atrofdagilarga o'zini ustunligini turli xil vosita,odatlar orqali ko'rsatishga urinish, umumlashtirib aytganda ularning psixologik ma'naviy o'zgarishlar ularning o'tish davridagi o'zini tutishi va liderlikka intilishida salbiy namoyon bo'ladi.

Eng katta to'siq bu ularning o'smirlilik yoshida fikrlar va atrofdagilarga osongina ko'r-ko'rona ergashib ketishida va simpatiyaga berilib ketishlarida uchraydi.

Bu to'siqlarni yengil o'tish uchun o'spirinlar atrofidagi asosiy shaxslar uning ota-onasi katta ahamiyat kasb etadi chunki aynan oila muhiti o'spirinda asosiy rivojlanish hatto liderlikka harakat qiluvchi turtki vazifasini bajaradi. Oilada ota va onaga qarab o'spirin tashqi olamni anglay boshlaydi va shu jihatdan idrok etadi. Agar tarbiya sog'lom muhitida shakllantirilgan bo'lsa o'spirinda liderlik qobiliyatini



shakllanishida to'siqqa uch rash foizi kamayadi bu esa o'z –o'zidan ospirinning liderlik qobiliyati kamchiliksiz shakllanishida muvaffaqiyatli amalga oshadi degani.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yetakchi shaxs tug'ma qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, yetakchining asosiy xususiyatlardan biri - guruh manfaati haqida g'amxo'rlik. Shuning uchun "yetakchi" ta'rifidagi asosiy ma'no shaxsning vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh maqsadi yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Yetakchilikni rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirgan holda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustahkamlashdir. Yoshlar tashkilotida yetakchilik bilan boshqarish muammosining ushbu jihatni yetakchilik qobiliyatini o'rgatish hamda o'zi ham o'rganish, motivlashtirish, treninglar va amaliy tajriba orqali yanada rivojlantirish imkonini hisobga oladi.

Yoshlar tashkilotida yoshi, jinsi, millati va mavqeい turlicha bo'lgan yetakchi ijodkorlar uchraydi, masalan:

harakatga keltiruvchi tashkilotchilar (rasmiy) yetakchilar; ruhiy kayfiyatga chorlovchi (da'vator) yetakchilar; tashabbuskor (ijodkor) yetakchilar; bilimdon (ilmiy salohiyatli) yetakchilar;

Yoshlar toifasining "o'quvchi yoshlar" guruhiga 14 yoshdan 21 yoshgacha va undan katta bo'lgan umumiy o'rtta ta'lim-maktab, akademik litsey va kasbhunar kolleji o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari kiradi.

Yoshlar psixologiyasida ushbu davr o'smirlilik hamda qadriyatlarni anglashning shakllanishi, o'zligini anglashi va shaxsning mavqeい shakllanishi davri sifatida qaraladi. O'spirin bolaning o'zini anglashi o'ziga xos beriluvchanlik, axborotlarni qayta ishlash va o'zlashtirish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Ushbu davr tanqidiy nigohdagi tafakkur, turli jarayonlarni o'z nuqtai nazari bilan baholash, turli dalillar izlash va original fikrlash vaqtidir. Shu bilan birga, ushbu yoshda oldingi avlodga xos bo'lgan hayot tarzi saqlanib qoladi. O'spiringa faol harakat vaqtida hayot tajribasi yetishmay qoladi, bu uning ijtimoiy munosabatlar tizimiga to'la kirishmaganligi bilan bog'liq.

Demak, zamonaviy yetakchi guruhda yetakchilik qobiliyati, umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davridir. O'spirinlar 8-10 sinf o'quvchilari bo'lib, ular oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish turadi.

Bu yoshdagagi bolalar o'smirlardan farq qiladi. A gar o'smirlikda o'quvchining asosiy faoliyati o'qish bo'lgan bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarining faoliyati o'qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo'ladi.





O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqeい o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi.

18 yoshda kattalikka erishadi. Organizmning o'sishi to'xtaydi, «tinch» davr boshlanadi. Organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu "superlider"dir. Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zлari uchun liderlarga aylantira oladi. Bundagi asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqtsoat yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'limgan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir. Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rindigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

Xulosa Shuni ta'kidlash mumkinki, atrof muhit o'spirinining liderlik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynabgina qolmay aynan shu muhit o'spirinni yetakchilik qobiliyatini mukammalashib borishida to'siqlar ham yaratadi. Bundan tashqari, o'spirinda qanchalik ko'p yetakchilik qobiliatlari shakllantirlsa va tarbiya orqali singdirib borilsa ko'zlangan maqsadga osongina erishish mumkin bo'ladi.

Avvalo, o'spiringa berilgan tarbiya va shu muhit asnosida qilingan ta'sir albatta o'spirinda tas'rini ko'rsatib qolmay uning tashqi atrofdagilarni o'ziga ergashtira olishiga va ularni boshqarishda ta'sir ko'rsatishni kafolatlaydi.

## FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati.-T.: "Akademiya", 2006
3. Razzoqov Sh. Rahbarlik san'ati. -T.: "Sharq", 1997-yil.124-b.
4. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: "Akademiya", 2006.241b
5. B .M . Umarov PSIXOLOGIYA «Voris-nashriyot» Toshkent – 2012



- 
6. SH.A.Do'stmuhamedova,X.A.Tillashayxova,G.Baykunusova,  
G.Ziyaviddinova UMUMIY PSIXOLOGIYA (2- KITOB) ( Yosh davrlari va pedagogik  
psixologiya) Toshkent- 2020
  7. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. -T.: "Akademiya", 2008.
  8. Xuseynov B.M. O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlari ijtimoiy  
harakati a'zolarida zamonaviy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish.T.: 2009.

Internet saytlar

